

**BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINI NUTQINI O`STIRISH
OMILLARI VA NOAN`ANAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH***Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna**Andijon davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Boshqa mashg`ulotlardan farqli ravishda nutq o`stirish mashg`ulotlari boshlang`ich ta`limda boladan ko`proq fikrlash, tahlil qilish va nutq so`zlashni talab etadi. Interfaol texnologiyalar bolalarni chuqur fikr yuritishga, ma`lumotlarni xayolan jamlash va nutq orqali yetkazib berishga urg`u beradi. Interfaol texnologiyalarni nutq o`stirish mashg`ulotlarida qo`llash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Kalit so`zlar: Nutq o`stirish, interfaol, metod, uslub, pedagog, ta`lim, fikr, mashg`ulot.

KIRISH

Mustaqil taraqqiyot yo`lidan dadil borayotgan, huquqiy demokratik jamiyat qurishga intilayotgan Respublikamizda har bir insonning ozod va erkin, farovon yashashini ta`minlovchi jamiyat barpo etilmoqda, yoshlarning ilm - ma`rifatli bo`lishiga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Nutq o`stirish mashg`ulotlari ta`limda bolalarni og`zaki nutqini o`stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so`zdan to`g`ri va o`rinli foydalanish, ya`ni nutq va xulq egasi bo`lish kabi ma`naviy axloqiy sifatlarni, so`zlash odobini egallashni shakllantiradi.

ASOSIY QISM

Interfaol metodlardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo`llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ustuvorligiga tayanib, boshlang`ich ta`limda erkin bahs – munozara sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Bu metodga ko`ra boshlang`ich ta`limlar bir necha bosqichga bo`linadi:

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda tahsil oluvchilarni faollashtirish, shuningdek mazmun mohiyatiga kirib borish uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko`zda tutiladi.

2. Fikriy hujum. Bu usul boshlang`ich ta`limning boshlanishida yoki istalgan joyida qo`llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo tahsil oluvchilarga aqliy hujum yo`li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitiladi va tarbiyachi tomonidan yangi fikrlar bilan to`ldiriladi.

Tahsil oluvchilarni guruhlariga bo`lib ishlash uchun qo`yidagi talablarga amal qilish zarur:

1. Guruhlarga ajratish tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi.
2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.
3. Har bir guruhdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo`lishiga erishish kerak.
4. Guruh doira shaklida o`tirishi lozim.
5. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g`oyalariiga e`tibor beriladi. Boshlang`ich ta`lim jarayonida guruh a`zolarini almashtirib borish ham mumkin. Quyidagi ta`lim jarayonida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so`z yuritimiz.

Fikriy hujum metodi. Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashg`ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta`minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag`batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang barang g`oyalarni to`plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo`lgan fikrlarni yengishga o`rgatish uchun xizmat qiladi. Nutq o`stirish mashg`ulotlarida ushbu metod yuqori samara beradi. Sababi, fikriy hujum metodi bolani mustaqil fikrlashga va o`z fikrini yoritishga majburlaydi. Bolalar dastlab majburan fikrlasa, ko`nikma hosil bo`lgach erkin fikrlay boshlaydi va nutq o`sishi yuzaga keladi.

“6X6X6” Metodi. Ushbu metod yordamida bir vaqtning o`zida 36 nafar tahsil oluvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali muayyan topshiriq yoki masalani hal etishmshuningdek guruhlarining har bir a`zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg`ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo`lgan 6 ta guruh tarbiyachi tomonidan tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach tarbiyachi oltita guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi oltita guruhdan bittadan vakil bo`ladi. Yangi shakllangan guruh a`zolari o`z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriqlar yechimlari) ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar. Ushbu metodni nutq o`stirish mashg`ulotlarida qo`llash yuqori samara beradi. **“Aqliy hujum” metodi.** Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo`llanadigan metod sanalib, u mashg`ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o`z tasavvurlari va g`oyalariidan ijobiy foydalanish borasida ma`lum ko`nikma va malakalarni hosil qilishga rag`batlantiriladi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg`ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original

yechimlarni topish imkoniyati tugʻiladi. Nutq oʻstirish mashgʻulotlarida ushbu metodni qoʻllash ayni maqsad sari olib boruvchi yoʻldir. Bola bir muammoga bir necha yechim topishga intiladi hamda ularni yoritib beradi. Oʻz-oʻzidan bola oʻz nutqini fikrlash orqali bayon etadi.

Nutq oʻstirish mashgʻulotlarida yuqoridagilardan tashqari bolalar bilimlarini kengaytirishga yoʻnaltirilgan, faol ishtirok etishga moʻljallangan yana bir qancha interfaol usullar mavjud:

- Erkin yozish;
- B-B-B chizmasi
- Tetiklashtiruvchi mashqlar va hokazo.

XULOSA VA MUNOZARA Maʼlumki, nutqiy faoliyat toʻrtga ajratiladi: oʻqish, yozish, tinglash, soʻzlash. Ular oʻzaro juft holatda bogʻlanadi va til tizimini amalga oshirishning ikki shakli - ogʻzaki va yozma shakli orqali belgilanadi. Nutqni oʻstirish mashgʻulotlarida interfaol texnologiyalardan foydalanish nutqiy faoliyatning 4 bosqichini ham jonlantirib, harakatga keltiradi. Bola bir vaqtning oʻzida oʻqish, yozish, tinglash va soʻzlash orqali aqliy harakatga kirishadi, nutq soʻzlaydi hamda nutqiy oʻsishga oson erishadi. Demak bugungi kunda mashgʻulotlarda nuqtaiy oʻsishga erishishning eng samarali usuli bu interfaol texnologiyalardan foydalanish ekan.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Boshlangʻich taʼlim bolalarga ikkinchi tilni oʻrgatish metodikasi. T., —Sano-standart, 2014.
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. —Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., —Istiqol, 2016.
3. Babayeva D.R. —Nutq oʻstirish metodikasi|| T.: TDPU 2016-yil. Oʻquv qoʻllanma.
4. Рашидов, Д. (2022). ИТМОИЙ ЕНТИЙОЖМАНД ТОИФАГА МАНСУБ ШАХСЛАРНИ ТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА ИШГА ЖОЙЛАСHTIRISH UCHUN ИШ ОʻРИНЛАРИНИ ЗАХИРАЛАШ. *Scienceweb academic papers collection*.
5. R.M.Qodirova. Oʻzbekiston maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni oʻrgatish. T., “Tarbiyachi”2013.